

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
GIDROMETEOROLOGIYA FAOLIYATI TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 12-
oktabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 19-noyabrda
ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilik

Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining gidrometeorologiya faoliyati to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

atrof tabiiy muhit ifloslanishining monitoringi — atrof tabiiy muhitning hamda atmosfera havosi, yer usti suvlari va tuproq ifloslanishining doimiy kompleks kuzatuvlari, shuningdek atrof tabiiy muhit holatini baholash va prognozlash;

gidrometeorologik axborot — gidrometeorologik hodisalar va atrof tabiiy muhit holatining kuzatuvlari natijalari, shuningdek ishlov berish hamda tahlil qilish yo'li bilan olingan, foydalanish, tarqatish va saqlash uchun mo'ljallangan axborot;

gidrometeorologik jarayonlar — atmosferaning va gidrosferaning holatini tavsiflovchi gidrometeorologik hodisalarning vaqt va makonda izchil rivojlanishi;

gidrometeorologik jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatish — aholiga, iqtisodiyot tarmoqlariga va ijtimoiy sohaga ehtimol tutilgan zararni kamaytirish uchun gidrometeorologik jarayonlarni atrof tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatish orqali boshqarish (ko'chkilarni majburan tushirish, do'l yog'ishining, yog'ingarchiliklarning, sel kelishining oldini olish);

gidrometeorologik hodisalar — atmosferada, yer yuzasida va undagi obyektlarda, yer usti suvlarida ro'y beradigan, gidrometeorologik sharoitlarni tavsiflaydigan jarayonlarning namoyon bo'lish shakllari (atmosfera bosimi, shamol, namlik, havo va suv harorati, suv sathi va sarfi, toshqinlar, sellar, ayozlar);

gidrometeorologiya faoliyati — meteorologiya, gidrologiya, glatsiologiya, iqlimshunoslik, agrometeorologiya, aerologiya, aviatsiya meteorologiyasi, atrof tabiiy muhit ifloslanishining monitoringi va gidrometeorologik jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatish sohasidagi gidrometeorologik axborotni tayyorlash (kuzatish, yig'ish, unga ishlov berish, uni tahlil qilish, saqlash va undan foydalanish), shuningdek uni tarqatish jarayoni;

ixtisoslashtirilgan gidrometeorologik axborot — foydalanuvchining talablariga muvofiq tayyorlangan hamda ishlov berish, tahlil qilish, saqlash va taqdim etish uchun qo'shimcha ishlar hamda xarajatlar talab qilinadigan gidrometeorologik axborot;

muhofaza zonasi — gidrometeorologik stansiyalar va postlar atrofida ularning hududi chegarasidan ikki yuz metr masofada joylashgan, yopiq chiziq bilan chegaralangan yer uchastkasi yoki suv akvatoriyasi;

tezkor gidrometeorologik axborot — aholining hayotiga va sog'lig'iga tahdid solishi, shuningdek atrof tabiiy muhitga, iqtisodiyot tarmoqlariga va ijtimoiy sohaga zarar yetkazishi

mumkin bo'lgan xavfli gidrometeorologik hodisalar to'g'risidagi zudlik bilan taqdim etiladigan gidrometeorologik axborot;

umumiy gidrometeorologik axborot — jamoatchilik foydalanishi uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga taqdim etiladigan gidrometeorologik axborot.

4-modda. Gidrometeorologiya faoliyatining asosiy prinsiplari

Gidrometeorologiya faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

globallik, tizimlilik va uzluksizlik;

gidrometeorologik kuzatuvlar va atrof tabiiy muhit ifloslanishining monitoringi natijasida olingan ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, ularni saqlash hamda tarqatish usullarining birligi va qiyosiyliigi;

gidrometeorologik axborotning to'liqligi, ishonchliligi va undan foydalana olish;

ochiqlik va xavfsizlik.

5-modda. Gidrometeorologiya faoliyatining globalligi, tizimliliigi va uzluksizligi prinsipi

Gidrometeorologiya faoliyatining globalligi, tizimliliigi va uzluksizligi prinsipi atmosfera, gidrosfera hamda tuproqning o'zaro bog'liqlik shartlarini tavsiflovchi gidrometeorologik hodisalarni kompleks o'rganishdan iboratdir.

Gidrometeorologiya faoliyatining globalligi, tizimliliigi va uzluksizligi prinsipi gidrometeorologik hodisalarning doimiy monitoringini o'tkazish hamda gidrometeorologik kuzatuvlar ma'lumotlari fondini uzluksiz ravishda shakllantirib borish yo'li bilan ta'minlanadi.

6-modda. Gidrometeorologik kuzatuvlar va atrof tabiiy muhit ifloslanishining monitoringi natijasida olingan ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, ularni saqlash va tarqatish usullarining birligi va qiyosiyliigi prinsipi

Gidrometeorologik kuzatuvlar va atrof tabiiy muhit ifloslanishining monitoringi natijasida olingan ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, ularni saqlash va tarqatish usullarining birligi va qiyosiyliigi prinsipi o'lchov vositalarini standartlashtirish hamda metrologik nazorat talablariga rioya etishdan, gidrometeorologik kuzatuvlar ma'lumotlarini yig'ishga, ularga ishlov berishga va ularni tahlil qilishga doir milliy hamda xalqaro tavsiyalar va qoidalarga asoslangan bixillashtirilgan usullar hamda yondashuvlardan foydalanishdan iboratdir.

7-modda. Gidrometeorologik axborotning to'liqligi, ishonchliligi va undan foydalana olish prinsipi

Gidrometeorologik axborotning to'liqligi, ishonchliligi va undan foydalana olish prinsipi qarorlar qabul qilish uchun gidrometeorologik parametrlarning yetarli to'plamidan, ushbu axborotdan foydalanish paytida uning qimmatini va dolzarbligini saqlab qolishdan, foydalanuvchi tomonidan axborotni samarali tarzda o'zlashtirish va tushunishdan iboratdir.

Gidrometeorologik axborotning to'liqligi, ishonchliligi va undan foydalana olish prinsipi foydalanuvchilar tomonidan qarorlar qabul qilish uchun ushbu axborotni uslubiy jihatdan to'g'ri yig'ish, unga ishlov berish, uni tahlil qilish va o'zgartirish hisobidan ta'minlanadi.

8-modda. Gidrometeorologiya faoliyatining ochiqligi va uni amalga oshirish xavfsizligi prinsipi

O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi o'z faoliyati to'g'risidagi axborot mavjud bo'lgan ochiq axborot resurslarini shakllantiradi va ulardan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda foydalanilishini ta'minlaydi.

Gidrometeorologiya faoliyatini amalga oshirish xavfsizligi texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish talablariga og'ishmay rioya etish yo'li bilan ta'minlanadi.

9-modda. Gidrometeorologiya faoliyatining obyektlari

Atmosfera, gidrosfera, tuproq, shuningdek atrof tabiiy muhitni ifloslantiruvchi komponentlar gidrometeorologiya faoliyatining obyektlaridir.

10-modda. Gidrometeorologiya faoliyatining subyektlari

Gidrometeorologiya faoliyatining subyektlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi va uning hududiy boshqarmalari;

davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari;

o'lchov vositalarining metrologik attestatsiyasiga oid maxsus sertifikat asosida gidrometeorologiya faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar va davlat boshqaruvi organlarining tarkibiy bo'linmalari;

o'lchov vositalarining metrologik attestatsiyasiga oid maxsus sertifikat asosida gidrometeorologiya faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

gidrometeorologik jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashkilotlar;

gidrometeorologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ta'lim tashkilotlari.

Gidrometeorologiya faoliyatining subyektlari O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmatining milliy tizimini tashkil etadi.

2-bob. Gidrometeorologiya faoliyati sohasini tartibga solish

11-modda. Gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

gidrometeorologiya faoliyatini amalga oshirish shartlari va tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, hisobga olish va hisobdorlik tizimlarini ishlab chiqish;

gidrometeorologik kuzatuvlar va o'lchovlarning yagona davlat tizimini shakllantirish, takomillashtirish hamda uning ishlashini ta'minlash;

davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek aholini atrof tabiiy muhitning amaldagi va prognoz qilinayotgan holati, ifloslanishi to'g'risidagi axborot, shu jumladan tezkor axborot bilan ta'minlash;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, yuridik shaxslarning gidrometeorologiyaga oid ishlarni bajarishga doir faoliyatini muvofiqlashtirish;

innovatsiya va investitsiya faoliyatini amalga oshirish;

gidrometeorologiya, iqlim o'zgarishi, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi sohasida ilmiy fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

12-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

gidrometeorologiya faoliyati sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini ta'minlaydi;

gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida qabul qiladi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining gidrometeorologiya sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

gidrometeorologiya faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

13-modda. Gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

gidrometeorologiya faoliyati sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi davlat dasturlari loyihalarini ishlab chiqadi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda o'z vakolatlari doirasida ishtirok etadi;

kuzatuvlar olib boradi, gidrometeorologik axborotni yig'adi, unga ishlov beradi, uni tahlil qiladi, saqlaydi va undan foydalanadi;

O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologik axborot davlat fondining shakllantirilishini, to'ldirilishini, saqlanishini va undan foydalanilishini ta'minlaydi;

davlat boshqaruvi organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, yuridik va jismoniy shaxslarni kuzatib borilayotgan hamda kutilayotgan gidrometeorologik sharoitlar, iqlim o'zgarishi, atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasi to'g'risidagi axborot bilan, shu jumladan tezkor gidrometeorologik axborot bilan ta'minlaydi;

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, gidrometeorologik jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi;

gidrometeorologik kuzatuvlarning davlat tizimi rivojlantirilishi va takomillashtirilishini, gidrometeorologik tarmoqning modernizatsiya qilinishini ta'minlaydi;

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va harakat qilish yagona davlat tizimiga kiradi hamda favqulodda vaziyatlarda o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda vaziyatlardan himoya qilish to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradi;

gidrometeorologiya, iqlim o'zgarishi, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi sohasida ilmiy fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazadi;

ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati obyektlaridan olisda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda joylashgan atrof tabiiy muhitning barcha obyektlarida ifloslantiruvchi moddalar mavjudligi darajasining uzoq muddatli tizimli kuzatuv tarzidagi fon monitoringini amalga oshiradi;

gidrometeorologik axborot tayyorlash hamda atrof tabiiy muhit holati va ifloslanishining monitoringi xalqaro tizimlarini muvofiqlashtiradi va integratsiya qiladi;

gidrometeorologiya faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

gidrometeorologiya faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

14-modda. Davlat boshqaruvi organlarining gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi vakolatlari

Davlat boshqaruvi organlari gidrometeorologiya faoliyati sohasida o'z vakolatlari doirasida:

tarmoq ahamiyatiga ega bo'lgan gidrometeorologiya faoliyatining amalga oshirilishini tashkil etadi va ushbu faoliyatni muvofiqlashtiradi;

o'z tasarrufidagi gidrometeorologik stansiyalar va postlar ishini qonunchilikka muvofiq ta'minlaydi.

Davlat boshqaruvi organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

15-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining gidrometeorologiya faoliyati sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari gidrometeorologiya faoliyati sohasida o'z vakolatlari doirasida: